

**“NOK PAYVANTAGLARINI YETISHTIRISHDA QORAQOLPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI KEGEYLI TUMANIDA JOYLASHGAN AKADEMIK
M.MIRZAYEV NOMIDAGI BOG‘DORCHILIK, UZUMCHILIK VA
VINOCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTINING KEGEYLI ILMIY
TAJIRIBA STANTSIYASI TUPROQ ANALIZI TAHLILI”**

Yusupova Malohat Sadillaevna

akademik M.Mirazev nomidagi BUVITI 3-bosqich doktoranti (DSc)

Reypnazarova Gulperiyyat Nukusbaevna

akademik M.Mirazev nomidagi BUVITI 1-bosqich doktoranti (DSc)

Annotatsiya: *Qoraqolpog‘iston Respublikasi Kegeyli tumanida joylashgan Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Kegeyli ilmiy tajriba stantsiyasining tuproq analizi tahlili o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *tuproq, yengil qumoq, o‘rta qumoq, mayda qum zarrachalari, o‘simlik, sho‘rlanish, oziqa modda, mineral va organik o‘gitlar.*

Аннотация: *Академик М. находится в кегейлинском районе Республики Каракалпакстан. Изучен почвенный анализ научно-экспериментальной станции кегейли научно-исследовательского института садоводства, виноградарства и виноделия им. Мирзаева.*

Ключевые слова: *почва, легкий суглинок, средний суглинок, мелкие частицы песка, растительность, засоленность, питательные вещества, минеральные и органические удобрения.*

Abstract: *Academician M. is located in the Kegeylinsky district of the Republic of Karakalpakstan. The soil analysis of the Kegeyli scientific experimental station of the Mirzaev Scientific Research Institute of Horticulture, Viticulture and Winemaking has been studied.*

Keywords: *soil, light loam, medium loam, fine sand particles, vegetation, salinity, nutrients, mineral and organic fertilizers.*

O‘zbekiston iqlim sharoitining barcha mevali ekinlar o‘shiga qulay, bu yesa o‘z o‘rnida biz olimlardan tez hosilga kiruvchi va yuqori hosildor intensiv tipdagi urug‘li mevalar ko‘chatlarini yetishtirish hamda ularning intensiv bog‘larni barpo qilishni taqazo yetadi. Bog‘dorchilikni rivojlantirish bir tomondan mamlakatimiz iqtisodini rivojlantirishga xissa qo‘shsa, ikkinchi tomondan xalq ijtimoiy holatini ko‘taradi. Bu boradagi ishlarni rivojlantirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi “Ilmiy-tadqiqot va Innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 133-son qarori belgilangan tartibda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Nok dunyoning shimoliy va janubiy yarim sharlarida yeng keng tarqalgan urug' mevalilardan biri hisoblanadi. Nokning ko'p navlarining mevalari yuqori iste'mol sifati, ajoyib ta'mi va xushbo'yli bilan ajralib turadi. MDX va Rossiyaning yeng qulay iqlim zonalarida yetishtirilgan nok navlarining hosildorligining tushib ketishi, ularning yangi navlarning yo'qligi hamda kasallik va zararkunandalarga chidamsiz yekanligidan darak beradi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi mintaqasiga mos, noyob belgi va xususiyatlarga ega yevropa va mahalliy nok navlari orasidan zamon talabiga javob beruvchi istiqbolli nav tanlab olib, uni ko'paytirish, sog'lomlashtirish va nok navlarini yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish hamda plantatsiyalarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Natijada ilk bor, Orolbo'yi mintaqasiga mos iqlimlashtirilgan yevropa va mahalliy nok navlarini yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqiladi, jahon standartlariga mos raqobatbardosh, sho'rga va issiqqa chidamli yevropa va mahalliy nok navlaridan plantatsiya tashkil etiladi.

Tadqiqotni otkazilgan joyni tuproq iqlim sharoiti. O'rganilgan tuproqlarning mexanik tarkibi haydov va haydov osti qatlamlari asosan yengil va o'rta qumolardan iborat bo'lib, fizik loy (<0,01 mm) zarrachalarining miqdori yengil qumoq mexanik tarkibli tuproqlarda 25,9-29,7 % ni, o'rta qumolarda 35,8-42,3 % ni tashkil etadi. O'rganilgan barcha kesmalarning quyi qatlamlari (40-60 sm) qumli mexanik tarkibli bo'lib, fizik loy (<0,01 mm) zarrachalarining miqdori 4,6-8,1 % oralig'ida tebranadi. Mexanik elementlar orasida yirik chang (0,05-0,01mm) zarrachalari yetakchi o'rinni egallaydi. Uning miqdori 35,1-58,8 % ko'rsatkichlarda kuzatiladi, keyingi o'rinlarda mayda qum (0,1-0,05 mm) zarrachalari turadi. Ularning miqdori 17,2-39,5 % ko'rsatkichlarda kuzatildi. Tuproq mexanik elementlari ichida eng qimmatli hisoblangan il zarrachalari (<0,001 mm) 0,1-10,0 % ni tashkil etadi(1-jadval).

O'rganilgan tuproqlarning mexanik tarkibi

№	Qatlam chuqur ligi, sm	Tuproq zarrachalari miqdori % da, o‘lchami, mm da							fizik loy	Mexanik tarkibga ko‘ra tuproq nomi
		Qum			Chang			Il		
		>0,25	0,25-0,1	0,1-0,05	0,05-0,01	0,01-0,005	0,005-0,001	0,001	<0,01 mm	
1	0-20	9,2	2,3	27,5	35,1	8,5	8,4	9,0	25,9	Engil qumoq
	20-40	3,2	0,8	23,2	37,0	15,1	10,7	10,0	35,8	O‘rta qumoq

№	Qatlam chuqur ligi, sm	Tuproq zarrachalari miqdori % da, o'lchami, mm da							fizik loy	Mexanik tarkibga ko'ra tuproq nomi
		Qum			Chang			Il		
		>0,25	0,25-0,1	0,1-0,05	0,05-0,01	0,01-0,005	0,005-0,001	0,001	<0,01 mm	
	40-60	21,6	5,4	30,3	34,6	4,1	3,4	0,6	8,1	Qum
2	0-20	1,2	0,3	26,8	42,6	10,4	9,3	9,4	29,1	Engil qumoq
	20-40	1,6	0,4	17,4	50,9	8,9	11,0	9,8	29,7	Engil qumoq
	40-60	14,0	3,5	39,5	38,2	4,2	0,5	0,1	4,8	Qum
3	0-20	2,0	0,5	17,2	38,0	24,5	10,5	7,3	42,3	O'rta qumoq
	20-40	2,4	0,6	31,8	58,8	1,1	3,7	1,6	6,4	Qum
	40-60	10,4	2,6	30,5	51,9	3,7	0,6	0,3	4,6	Qum

O'simliklar normal o'sishi va rivojlanishi uchun tuproq tarkibidagi suvda eruvchan tuzlar miqdori ma'lum chegaradan oshmasligi kerak, ya'ni ular sho'rlanmagan bo'lishi lozim. Kimyoviy tahlil natijalariga ko'ra tuproqlarning sho'rlanish tizimi (2-jadval), asosan xlorid-sulfatli sho'rlanish tipidan iborat. Sho'rlanish darajasi bo'yicha bu tuproqlar kuchsiz sho'rlangan bo'lib, suvda oson eruvchi tuzlar miqdori bo'yicha quruq qoldiq 0,125-0,230 % oralig'ida tebranadi. Tuproq profili bo'ylab xlor-ioni 0,025-0,105% ni sulfat-ioni esa 0,202-0,474 % ni tashkil qilishi kuzatildi.

O'simliklar normal o'sishi va rivojlanishi uchun tuproqda oziqa moddalari miqdori yetarlicha bo'lishi lozim. Buning uchun tuproqdagi oziqa moddalari miqdorini e'tiborga olib, har bir ekin turi uchun maqbul meyorlarda mineral va organik o'g'itlar qo'llash talab etiladi.



Tuproqlarning suvli so'rim tarkibi, (abs. quruq tuproq vazniga nisbatan % hisobida)

Kesma №	Qatlam chuqurligi	Qurug' Qoldiq	HCO ₃ ⁻	Cl ⁻	SO ₄ ²⁻	Ca ⁺	Mg ⁺	Tuzlar yig'indisi	Sho'rlanish	
									tipi	darajasi
1	0-20	0,230	0,039	0,021	0,105	0,025	0,012	3,40	X/S	Kuchsiz sho'rlangan
	20-40	0,200	0,042	0,021	0,082	0,025	0,009	2,97	X/S	Kuchsiz sho'rlangan
	40-60	0,125	0,042	0,007	0,044	0,020	0,003	1,78	X/S	Kuchsiz sho'rlangan
2	0-20	0,180	0,045	0,017	0,067	0,015	0,006	2,61	X/S	Kuchsiz sho'rlangan
	20-40	0,210	0,045	0,024	0,081	0,030	0,003	3,10	X/S	Kuchsiz sho'rlangan
	40-60	0,175	0,042	0,017	0,066	0,025	0,003	2,54	X/S	Kuchsiz sho'rlangan
3	0-20	0,130	0,039	0,014	0,042	0,020	0,003	1,89	X/S	Kuchsiz sho'rlangan
	20-40	0,160	0,042	0,014	0,059	0,025	0,003	2,29	X/S	Kuchsiz sho'rlangan
	40-60	0,125	0,039	0,014	0,038	0,015	0,003	1,81	X/S	Kuchsiz sho'rlangan

Keltirilgan tuproq namunalarida gumus miqdori 1-tuproq kesmasining haydov qatlamida 1,34 % ni tashkil etib, amaldagi klatsifikatsiyaga ko'ra ko'proq (1,21-1,60 %) darajada, 2-3 kesma tuproq namunalarida esa 0,78-0,80 % tashkil etib, kam (0,41-0,80%) darajada ta'minlanganligi kuzatildi. Gumus miqdori pastki qatlamlar tomon asta sekin kamayib boradi. Bu tuning pastki qatlamlari tarkibida gumus miqdori 0,58-

0,76 % oralig'ida tebranib, gumus bilan kam darajada ta'minlangan tuproqlar guruhini tashkil qiladi.

Xulosa: olib borilgan tadqiqotlar natijasida tuproqning mexanik tarkibida fizik loy ($<0,01$ mm) zarrachalarining miqdori yengil qumoq mexanik tarkibli tuproqlarda 25,9-29,7 % ni, o'rta qumolarda 35,8-42,3 % ni tashkil etadi. Kimyoviy tahlil natijalariga ko'ra tuproqlarning sho'rlanish tizimi asosan xlorid-sulfatli sho'rlanish tipidan iborat. Sho'rlanish darajasi bo'yicha bu tuproqlar kuchsiz sho'rlangan bo'lib, suvda oson eruvchi tuzlar miqdori bo'yicha quruq qoldiq 0,125-0,230 % oralig'ida tebranadi. Tuproq profili bo'ylab xlor-ioni 0,025-0,105% ni sulfat-ioni esa 0,202-0,474 % ni tashkil qilishi kuzatilganligi aniqlandi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ruzmetov R., Yo'ldoshev Q., Mashiripov A., Polvonov S., Qurbonova D. Quyi Amudaryo hududida tarqalgan tuproqlarning ekologik muamolari. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. №3(24) -2012. -B.12-14.
2. Ribakov A.A., Ostrouxova S.A. - Intensifikatsiya plodovodstva - Tashkent, 1981. – S. 159-162.
3. Sodiqov Y.S., Agzamova I.A. O'zbekiston hududida tuz to'planish dinamikasi.// ToshDTU Xabarlari, 2004.-№2. -B.203-209.
4. Rajametov Sh., Abrorov Sh “Zamonaviy intensiv nok bog'larini yaratish va parvarishlash texnologiyasi” Toshkent “Bakteria press”, 2018. b – **11-80**
5. Aripov A.U., Aripov A.A., “Urug'li intensiv meva bog'lari” Toshkent: “Sharq”, 2013 –b 108-121.